



**Bioiqtisodiyot bo'yicha o'tkaziladigan O'zbekistondagi birinchi forumning kun tartibi**  
**"Mamlakatlar va hududlarning barqaror rivojlanishi uchun bioiqtisodiyot" (T.6.5.)**

Evropa Ittifoqi uchun vaqtি	O'zbekiston uchun vaqtি	1 kun - Chorshanba, 2022 yil 27-Aprel		
06.00-07.00	08.00 – 09.00	Ro'yxatga olish & Kofe-break		
07.00-07.30	09.00 – 09.30	<p><b>Ochilish marosimi:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>Mindaugas Kaserauskis janobi oliylari, Yevropa Ittifoqi delegatsiyasining siyosi, matbuot va axborot bo'limi boshlig'i</li> <li>Alisher Shukurov, O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jalik vaziri maslahatchisi</li> <li>Edgars Kronbergs, Parlament kotibi, Latviya Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi</li> <li>Prof. Komiljon Karimov, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirining birinchi o'rribbosari</li> <li>Prof. Shaxloxon Turdikulova, O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vaziri o'rribbosari</li> <li>Dr. Aziza Abdurakhmanova, O'zbekistondagi Erasmus milliy ofisi kordinatori</li> <li>Feruz Abilov, Samarqand viloyati hokimi o'rribbosari</li> <li>Prof. Shavkat Hasanov, Toshkent davlat agrar universiteti Samarqand filiali direktori, forum moderatori</li> </ul>		
07.30-08.00	09.30 – 10.00	Birinchi ma'ruba: <i>Iqtisodiyotning tarmoqli yondashuvdan bioiqtisodiyotga o'zgarishi.</i> Irina Pilvere, Latviya Tabiiy fanlari va texnologiyalar universiteti rektori		
08.00-08.30	10.00 -10.30	Ikkinchi ma'ruba: <i>O'zbekistonda biotexnologiyani rivojlantirish yo'l xaritasi va uni amalga oshirishda bioiqtisodiyotning o'rni.</i> Prof. Shaxloxon Turdikulova, O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vaziri o'rribbosari		
08.30-09.10	10.30 – 11.10	<b>Muhokama – bioiqtisodiyot O'zbekistonga qanday naf keltirishi mumkin?</b>		
09.10-09.30	11.10 – 11.30	Guruh bo'lib fotosuratga tushish		
09.30-10.00	11.30 – 12.00	Talabalar posterlari taqdimoti sessiyasi		
10.00-11.00	12.00 – 13.00	Coffe break		
11.00-13.00	13:00 – 15:00	<p><b>Plenar sessiya taqdimotlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li><b>Bilimlarni fandan biznesga o'tkazish</b> Janob Edvards Ratnieks, Latviya Qishloq xo'jaligi vaziri maslahatchisi</li> <li><b>Raqamlashtirish muvaffaqiyatlari: tarmoqlararo hamkorlik</b> Ira Raciña xonim, Latviya IT-klasteri DIH, Latviya Xalqaro loyihalar menejeri</li> <li><b>Bilimlarni fandan biznesga o'tkazish – BioPaavodagi Hatchatons</b> Dr. Annimari Lehtomäki, Finlyandiyaning JAMK amaliy bilimlar universiteti bosh mutaxassisi</li> </ul> <p>Munozaralar bilan ishlaydigan sessiyalar - tegishli bioiqtisodiyot sohalaridagi eng yaxshi tajribalar:</p> <table border="1"> <tr> <td>1: <i>Qishloq va o'rmon xo'jaligida o'simlik va hayvon mahsulotlarini olish</i> "Tuxum ishlab chiqarishda chiqindi yoki doiraviy iqtisodiyot"</td><td>2: <i>Oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash va qo'shimcha mahsulotlardan foydalanish.</i> "Sut yo'nalishi chorvachiligidagi doiraviy bioiqtisodiy yondashuv".</td></tr> </table>	1: <i>Qishloq va o'rmon xo'jaligida o'simlik va hayvon mahsulotlarini olish</i> "Tuxum ishlab chiqarishda chiqindi yoki doiraviy iqtisodiyot"	2: <i>Oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash va qo'shimcha mahsulotlardan foydalanish.</i> "Sut yo'nalishi chorvachiligidagi doiraviy bioiqtisodiy yondashuv".
1: <i>Qishloq va o'rmon xo'jaligida o'simlik va hayvon mahsulotlarini olish</i> "Tuxum ishlab chiqarishda chiqindi yoki doiraviy iqtisodiyot"	2: <i>Oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash va qo'shimcha mahsulotlardan foydalanish.</i> "Sut yo'nalishi chorvachiligidagi doiraviy bioiqtisodiy yondashuv".			

		<p><i>elementlaridan qanday qiymat yaratish mumkin".</i>  <i>Janob Toms Auškāps, Latviyadagi «Balticovo» OAJ boshqaruvi a'zosi</i></p> <p>Seksiya raisi: prof.Umid Nazarqulov.</p>	<p><i>Janob Reinholds Sprukulis, Latviyaning "Vecsiljāņi" kompaniyasi boshqaruvchi a'zosi</i>  <i>"Substrat sifatida Zardob funksional mahsulotni ishlab chiqish".</i>  <i>Prof. Jeļena Zagorska (Latviya).</i>  Seksiya raisi: Prof. Jeļena Zagorska.  Seksiya raisi yordamchisi: Dr. Alisher Botirov.</p>
		<p><b>3: Biologik chiqindilarni boshqarish</b></p> <p><i>"Utilizatsiya yo'qolmaydi!".</i>  <i>Baiba Rosicka xonim, Latviyaning Getliņi EKO Ltd kompaniyasi vakili</i></p> <p>Seksiya raisi: Bekzod Toshtemirov.</p>	<p><b>4: Bioenergiya: energiya bilan bog'liq o'rmon xo'jaligi.</b></p> <p><i>"Energiyaga biochiqindilar: Litva bioenergiyasi rivojlanishiga sharh".</i>  <i>Prof. Vlada Vitunskienė, dots. Daiva Makutėnienė, Litvaning Vitautas Magnus universiteti</i></p> <p>Seksiya raisi: dots. Anvar Anarboyev</p>
		<p><b>5: "O'zbekiston iqtisodiyoti bioiqtisodiyot yo'lida" parallel sessiyasi – ilmiy taqdimotlar va tadqiqot munozaralar"</b></p> <p>Seksiya raisi: dots. Maxmud Oripov</p>	
13.00-13.30	15.00 - 15.30	Coffe break	
13.30-14.30	15.30 - 16.30	Xulosa va tavsiyalar- ishchi sessiyalar yakuni taqdimoti	
14.30-16.30	16.30 – 18.30	Ekskursiya, Agromir MChJ <a href="http://agromir.uz/ru/pages/about">http://agromir.uz/ru/pages/about</a>	
16.30-19.30	18.30 – 21.30	Kechki ovqat(iftorlik)	

Evropa Ittifoqi uchun vaqtি	O'zbekiston uchun vaqtি	2 kun - Payshanba, 2022 yil 28-Aprel
06.30-07.30	08.30 – 09.30	Ro'yxatga olish & Coffe break
07.30-08.00	09.30 – 10.00	Birinchi ma'ruba: <b>Bioiqtisodiyotga oid tadqiqotlar va innovatsiyalar: ehtiyojlar va muammolar</b> Vlada Vitunskiene, Litvaning Vitautas Magnus universiteti professori
08.00-08.30	10.00 -10.30	Ikkinci ma'ruba: <b>Bioiqtisodiyot kun tartibini belgilash va bioiqtisodiyot ekotizimini rivojlantirishda oliy ta'limning o'rni.</b> Dr. Minna Lappalainen, Finlyandianing JAMK Amaliy bilimlar universiteti Bioiqtisodiyot instituti direktori
08.30-09.00	10.30 – 11.00	<b>Muhokama – O'zbekistonda bioiqtisodiyotga oid ta'lim va tadqiqotning asosiy istiqbollari va muammolari nimalardan iborat?</b>
09.00-09.30	11.00 – 11.30	Talabalar posterlari tanlovi g'oliblarini taqdirlash
09.30-10.00	11.30 – 12.00	Ishtirokchilar o'zaro hamkorlik masalalari bo'yicha suhbati
10.00-11.00	12.00 – 13.00	Coffe break
11.00-12.30	13.00 - 14.30	<p><b>Plenar sessiya taqdimotlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>· <b>Barqarorlikni ta'minlaydigan innovatsion bioiqtisodiy yechimlar</b> Kirsi Knuuttila xonim, Finlyandianing JAMK amaliy bilimlar universiteti o'qituvchisi va tadqiqotchisi</li> <li>· <b>Bioiqtisodiyot haqidagi bilimlar biznes rivojlanishini qanday oshirishi mumkin?</b> Prof. Dina Popluga, Latviya Tabiiy fanlari va texnologiyalari universiteti, "Augu spēks" MChJ boshqaruv a'zosi.</li> </ul> <p>Munozaralar bilan ishlaydigan sessiyalar - tegishli sohalardagi eng yaxshi tajribalar:</p> <p>1: <b>Oliy ta'limni bioiqtisodiyot</b>   2: <b>Biznes innovatsiyalarida oliy ta'lim</b></p>

		<p><b>tarmoqlarining yaxshilanishidagi o'zgarishlari</b></p> <p>"Polylabs bio-asosidagi materiallar misoli", Janob Kristians Grundstoks, Latviyaning "Polylabs" MChJ asoschisi va bosh direktori</p> <p>Seksiya raisi: Prof. Vlada Vitunskiene. Seksiya raisi yordamchisi: Dr. Sherzod Babaxolov</p>	<p><b>muassasalarining o'rni</b></p> <p>"Axborot texnologiyalarini asalarichilikda qo'llash"</p> <p>Prof. Alekseys Zacepins, Latviya Tabiiy fanlari va texnologiyalari universiteti</p> <p>Seksiya raisi: Ph.D. Xusniddin Pardayev</p>
		<p>3: <b>"O'zbekiston iqtisodiyoti bioiqtisodiyot yo'lida" parallel sessiyasi – ilmiy taqdimotlar va tadqiqot bahslari.</b></p> <p>Seksiya raisi: Fotima Saydullaeva</p>	<p>4: <b>Parallel sessiya "IPReS – Olimlarning Markaziy Osiyoga qayta integratsiyalashuvi bo'yicha dastlabki innovatsion dasturi: iqlim o'zgarishi sharoitida oziq-ovqat zanjirlari bo'yicha tadqiqotlar va salohiyatni oshirish"</b></p> <p>Seksiya raisi: Dr. Ihtiyor Bobojonov.</p>
12.30-13.15	14.30 - 15.15	Xulosa va tavsiyalar - ishchi sessiya taqdimoti. Yakunlovchi fikrlar.	
13.15-13.30	15.15 – 15.30	<b>Yakunlash marosimi</b>	
13.30-15.00	15.30 – 17.00	Cofee break va ma'lumotlar almashinish	
16.30-19.30	18.30 – 21.30	Kechki ovqat(iftorlik)	

### Asosiy ma'lumotlar

Forumning mavzusi bioiqtisodiyot hisoblanadi. U nimani o'z ichiga oladi va nima uchun u O'zbekiston uchun muhim va dolzARB? Nega bioiqtisodiyot haqida gapirish muhim? O'zbekiston, ayniqsa, tabiiy resurslardan, boshqacha aytganda, bioresurslardan foydalanishni o'z ichiga olgan tarmoqlarda jadal iqtisodiy o'sish uchun ulkan salohiyatga ega. Bunday iqtisodiyotni rivojlantirish uchun bir qator tadbirlarni amalga oshirish, jumladan, mutaxassislarni o'qitish sohasida ham zarur hisoblanadi. Ayni paytda mamlakatda bioiqtisodiyotga oid o'quv dasturlari bir-biriga mos kelmasligi sababli mutaxassislar yetishmasligi kuzatilmoqda.

Yevropa Ittifoqi (EI) 2012-yilda barqaror qishloq xo'jaligi, o'rmon xo'jaligi va baliqchilik, oziq-ovqat xavfsizligi talablarini o'zida mujassam etgan yanada innovations va kam emissiyali iqtisodiyotni yaratish maqsadida resurslarni tejaydigan va barqaror bioiqtisodiyot yo'nalishini belgiladi hamda biologik xilma-xillikni ta'minlash va atrof-muhitni muhofaza qilish bilan birga sanoatda qayta tiklanadigan biologik resurslarni qo'llash maqsad qilindi. Bioiqtisodiyot - bu qayta tiklanadigan biologik resurslardan foydalangan holda mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarishni hamda bu kabi resurslar va chiqindi oqimlarini qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar: oziq-ovqat, ozuqa, to'qimachilik, bioenergiya va boshqalarga aylantirishni o'z ichiga olgan iqtisodiy yondashuvdir. Ushbu maqsadlarga erishish uchun Yevropa Komissiyasi 2012 yilda bioiqtisodiyot strategiyasini ishlab chiqdi va u 2018 yilda yangilandi.

Yevropa Ittifoqi universitetlari tomonidan O'zbekistonga bioiqtisodiyotni rivojlantirish va mutaxassislar tayyorlash bo'yicha tajriba taklif etdi. Xalqaro konsortsium, jumladan Yevropa Ittifoqi mamlakatlari va O'zbekiston Respublikasining sakkizta tashkiloti "O'zbekistonda bioiqtisodiyotni barqaror rivojlantirish bo'yicha yangi magistratura dasturi" BioEcUz loyihasini 2021-yil yanvar oyidan boshlab amalga oshira boshladi. Loyiha Yevropa Ittifoqi tomonidan moliyalashtiriladigan Erasmus+ dasturining moliyaviy ko'magida amalga oshirilmoqda.

“BioEcUz” loyihasi (<http://bioecuz.tdau.uz/project>) oliv ta’lim tarkibi va shakliga yangi bilim va yondashuvlarni joriy etishga qaratilgan bo’lib, O’zbekistonda bioiqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish uchun fanning turli sohalaridagi bilimlarni uyg’unlashtirish va qo’llash qobiliyatiga ega keng qamrovli fikrlaydigan mutaxassislarini tayyorlash imkonini beradi.

Yangi magistratura dasturi fanlararo yondashuv bo’lib, unda bir qancha fanlar: qishloq xo’jaligi, o’rmon xo’jaligi, baliqchilik, veterinariya, atrof-muhitni muhofaza qilish, muhandislik va ijtimoiy fanlar aralashtiriladi hamda agar bu bilimlar innovatsion texnologiyalar, mahsulotlar va xizmatlarga o’tkazilsa, ko’p tarmoqli yondashuvga asoslangan bilimlardan foydalanish orqali ta’minlanishi mumkin bo’lgan ijobiy natijalar, bioiqtisodiyotning turli sohalarida hal qilinishi kerak bo’lgan masalalar o’rtasidagi yaqin va o’zaro aloqalarni namoyish etadi.

**Umumiy maqsad:** O’zbekistonda barqaror va inklyuziv ijtimoiy-iqtisodiy o’sishni rivojlantirishga hissa qo’shishdan iborat.

#### **Loyihada ishtirok etayotgan O’zbekiston universitetlari:**

1. Toshkent davlat agrar universiteti (TDAU) – <https://tdau.uz/>
2. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo’jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti - <http://tiiame.uz/ru/>
3. Buxoro davlat universiteti <http://buxdu.uz/index.php/ru/>
4. Toshkent davlat agrar universitetining Samarqand filiali - <http://samaguni.uz/en>

#### **Bioiqtisodiyot forumi va uning maqsadlari**

2022-yilning 27-28-aprel kunlari O’zbekiston Respublikasidagi Toshkent davlat agrar universiteti Samarqand filialida bioiqtisodiyot bo’yicha birinchi qo’shma forumi tashkil etiladi. Forum loyiha doirasidagi tadbirlardan biri bo’lib, unda universitetlar, bioiqtisodiyotni rivojlantirishda o’rnı yuqori bo’gan davlat va xususiy sektor ishtirokchilarining birinchi keng ko’lamli yig’ilishi o’tkaziladi.

Forumda jalb qilingan hamkorlar (O’zbekiston va Yevropa Ittifoqi mamlakatlari universitetlarining professor-o’qituvchilari), talabalar, O’zbekistondagi jalb etilgan universitetlarning ma’muriy xodimlari, shuningdek, xususiy va davlat sektorlaridan taklif etilgan boshqa mutaxassislar: bioiqtisodiyot mavzusiga oid tegishli davlat organlari masalan, O’zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi, Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi va Qishloq xo’jaligi vazirligi, mamlakatning tegishli tarmoqlarini ifodalovchi jalb qilingan korxonalar: qishloq, o’rmon xo’jaligi, oziq-ovqat va materiallarni qayta ishlash, energiya, suv ta’minoti, kanalizatsiya hamda sanoat va maishiy chiqindilardan foydalanishdagi korxonalar ishtirok etadi. Bunga parallel ravishda O’zbekiston Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 7-martdagi 101-F-sonli farmoyishi bilan yuqorida qayd etilgan mavzularda bioiqtisodiyot sohasiga bag’ishlangan ilmiy konferensiya ham tashkil etiladi.

Forumda manfaatdor tomonlarning turli guruhlarini bioiqtisodiyot – bu nima, u qanday ishlaydi, turli mamlakatlar bioiqtisodiyot va uning ekotizimini qanday rivojlantiradi, qanday afzalliklari bor, bioiqtisodiyot sohaviy yondashuvdan nimasi bilan farq qilishi va O’zbekiston misolida qanday qiymat keltirishi mumkinligi haqida xabardor qiladi va tushunchalarini oshiradi. O’zbekistonda bioiqtisodiyot bo’yicha ikkinchi xalqaro forum 2023-yilda tashkil etiladi.

Forumda ishtirok etish uchun Latviya, Litva va Finlyandiyadan bioiqtisodiyotni amaliyotga tatbiq etish sohasidagi ilg’or tajribalarni namoyish eta oladigan tashqi ekspertlar taklif etilgan.

#### **Forumga quyidagi manfaatdor tomonlar taklif etiladi:**

- bioiqtisodiyot sohalari bilan shug’ullanuvchi tegishli davlat muassasalari va idora vakillari;

- Xalq xo'jaligining bioqtisodiyot sohasiga bevosita yoki bilvosita aloqador bo'lgan turli tarmoqlari ishlab chiqaruvchilari va qayta ishlovchilari: oziq-ovqat ishlab chiqarish va qayta ishlash, o'rmon, baliqchilik, farmatsevtika, kimyo sanoati, to'qimachilik sanoati, mashinasozlik va boshqalar;
- Potentsial talabalar;
- boshqa oliv ta'lim muassasalari.



### **Forumda ishtirok etish uchun onlayn ro'yxatdan o'ting:**

[https://docs.google.com/forms/d/e/1FAIpQLSeh2Nxah4WOfu\\_FszMwXFiwkHCZjrly9TPmU3epREISz3XYxw/viewform](https://docs.google.com/forms/d/e/1FAIpQLSeh2Nxah4WOfu_FszMwXFiwkHCZjrly9TPmU3epREISz3XYxw/viewform)

**Ro'yxatdan o'tishning oxirgi muddati: 2022 yil 20 aprel.**

Forum haqida qo'shimcha ma'lumotlar olish uchun quyidagi manzilga murojaat qiling:

**Shavkat Hasanov**, Toshkent davlat agrar universiteti Samarqand filiali direktori:

tel: +998915428137 e-mail: [shavkat.hasanov14@gmail.com](mailto:shavkat.hasanov14@gmail.com)

**Xusniddin Pardayev**, Xalqaro aloqalar bo'limi boshlig'i:

tel: +998993895537, e-mail: [pardayev@yahoo.com](mailto:pardayev@yahoo.com)